

KORXONALARDA BOSHQARUV TIZIMINI TASHKIL ETISH VA
UNING MEXANIZMLARI

ОРГАНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ И
ЕЕ МЕХАНИЗМЫ

ORGANIZATION OF MANAGEMENT SYSTEM IN ENTERPRISES AND
ITS MECHANISMS

Ishmatova M.M

“Alfraganus university”

Nodavlat oliy ta’lim tashkiloti,

2-kurs magstranti,

Annotatsiya: *Ushbu maqolada korxonalar boshqaruv jarayonida ishlab chiqarishni tashkil etishning bir qator mexanizmlari ochib berilgan. Shu bilan birga, korxonalar faoliyatining o’ziga xos samaradorlik jarayonlarining bir qator ijtimoiy va iqtisodiy omillari asoslab berilgan.*

Kalit so’zlar: *korxonalar, mahsulot (zagatovka), bozor metodologiyasi, Xerox, firma, Univem, marketing.*

АННОТАЦИЯ: *В данной статье раскрывается ряд механизмов организации производства в процессе управления предприятиями. При этом обосновывается ряд социальных и экономических факторов конкретных процессов эффективности деятельности предприятия.*

Ключевые слова: *предприятие, продукт (zagatovka), рыночная методология, Xerox, фирма, Univem, маркетинг.*

Abstract: *This article reveals a number of mechanisms for organizing production in the management process of enterprises. At the same time, a number of social and economic factors of the specific efficiency processes of the enterprise's activity are justified.*

Key words: *enterprise, product (zagatovka), market methodology, Xerox, firm, Univem, marketing.*

Respublikamiz mustaqillikka erishishning dastlabki kunlaridanoq, jamiyat taraqqiyotining barcha jabhalarida, eng avvalo iqtisodiy sohada iqtisodiy islohatlarni yanada chuqurlashtirish va erkinlashtirish borasida aniq dasturlar ishlab chiqilgan¹⁶. Shu asosda mustaqillikdan keying yillarda korxonani boshqarishning maqsadga muvofiq tarkibini vujudga keltirish tadbirkor hal etishi kerak bo’lgan muhim vazifalardan biri sifatida belgilab olindi. Jumladan,

¹⁶ B.Toshmurodova, O.Hamdorov. Moliyaviy menijment. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2012. – B.3

korxonaning boshqaruv tarkibi deganda, boshqaruv maqsadlarini amalga oshiruvchi va funksiyalarini bajaruvchi, bir-biri bilan bog'langan turli boshqaruv organlari va bo'g'inlarining majmui tushuniladi. Boshqaruv tarkibi ishlab chiqarish tarkibi deb ham yuritiladi. Bunda boshqarishni tashkil etishning dastlabki va belgilovchi omili ishlab chiqarish jarayoni hisoblanadi. U o'zaro bog'langan asosiy, yordamchi hamda xizmat ko'rsatuvchi jarayonlardan iborat bo'lib, bu jarayonlar bo'limlar va xodimlar o'rtasida mehnat taqsimotini talab qiladi. Shu maqsadda ishlab chiqarish bo'limlari va ularga xos bo'lgan boshqaruv apparati tuziladi. Bo'linmalar yig'indisi, ularning tarkibi va o'zaro aloqa shakllari korxonalarining ishlab chiqarish tarkibini tashkil etadi. Xususan, boshqaruv bo'g'ini - bu boshqaruvning ayrim yoki qator funksiyalarini bajaruvchi mustaqil bo'limlardir. Bu bo'limlar o'rtasidagi bog'lanish va aloqalar gorizontal xarakterga ega bo'ladi.

Har bir korxonaning asosiy faoliyati - mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish, xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatuvchi jarayonlarning yig'indisidan iborat. Asosiy jarayon, odatda, tayyorlash, ishlov berish, yig'ish bosqichlarini o'z ichiga oladi. Tayyorlov bosqichida shu korxonaning o'zida ishlov berish davom ettiriladigan yarim tayyor mahsulot (zagatovka)lar tayyorlanadi. Ishlov berish bosqichida yarim tayyor mahsulotlar yoki materiallarga ishlov berish natijasida tayyor mahsulot olinadi. Yig'ish bosqichi - bu bosqichda buyum qismlari yig'iladi va tayyor mahsulotga aylanadi. Yordamchi jarayonlar deganda (masalan, mashinasozlikda) dastgohlar, bino, inshootlarni ta'mirlash; texnik asbob-uskunalarini tayyorlash va ta'mirlash; barcha turdagi energiyalar (elektr, issiqlik, siqilgan havo)ni ishlab chiqish va uzatish tushuniladi. Ba'zi yordamchi jarayonlar uch bosqichdan: tayyorlov, ishlov berish va yig'ish (masalan, texnik uskunalarini tayyorlash) jarayonlaridan tashkil topishi mumkin. Xizmat ko'rsatuvchi - jarayonlarga asosiy va yordamchi jarayonlarga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan (masalan, ombor ishlari, nazorat ishlari) jarayonlar kiradi. Ishlab chiqarish jarayoni ayrim qismlarga bo'linadi va bu jarayonlarning tarkibi operatsiyalardan tashkil topadi. Operatsiya-ishlab chiqarish jarayonining bir qismi bo'lib, u ishchi o'rnida dastgohni yoki uning qismlarini o'zgartirmagan holda bitta ishchi tomonidan bajariladi. Operatsiyalar asosiy va yordamchi operatsiyalarga bo'linadi. Ishchi o'rni - bu ishlab chiqarish maydonining bir qismi bo'lib, u ishchilar ishlab chiqarish jarayonidagi ma'lum operatsiyalarni bajarishi uchun zarur bo'lgan dastgoh va asbob-uskunalar bilan jihozlangan joydir.

Ishlab chiqarish quvvati - bu, ma'lum bir vaqt davomida ilg'or texnologiyalardan foydalanish, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilishning ilg'or sharoitlarida ishlab chiqarish mumkin bo'lgan mahsulotlarning maksimal darajasidir. U qoidaga ko'ra, ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmining natural

ko'rinishda, ushbu korxonaning ixtisoslashganligi va mahsulotning alohida turlari o'rtasidagi o'zaro nisbatiga ko'ra aniqlanadi. «Ana shunday o'zgarishlar natijasida yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoatning ulushi hozirgi vaqtda 24,2 foizdan ziyodni tashkil etmoqda. Holbuki, bu ko'rsatkich 2000-yilda 14,2 foizdan ibomt edi. Mamlakatimizda iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni tubdan oshirish bo'yicha o'z vaqtida ko'rilgan chora-tadbirlar ham amaliy samarasini bermoqda. o'tgan yili ana shunday tovarlar ishlab chiqarishning o'sish hajmi 14,4 foizni tashkil etdi va yalpi sanoat hajmida ulaming ulushi 35,5 foizga yetdi. Bunday tovarlaming raqobatdoshligi nafaqat ichki bozorda. balki tashqi bozorda ham tobora ortib bormoqda»¹⁷.

Agar mahsulot muayyan maqsadlar uchun ishlatilishiga mo'ljallab chiqarilgan bo'lsa, u bozorda o'z o'rnini topadi. Shu bilan birga, kiritilayotgan yangiliklar yangi turdagi bozorlarni shakllantiradi. Masalan, ko'p yil mobaynida barcha ishlarda nusxa ko'chirish qo'llanilmas edi. «Kseroks» firmasi nusxa ko'chirish apparatini ixtiro qilib, bozorga chiqargandan keyin nafaqat AQShda, balki dunyoning boshqa mamlakatlarida ham ushbu yangilik juda keng tarqalib ketdi. Shuni ta'kidlash kerakki, «bozorni o'rganish» atamasi dinamik jarayon tushunchasi bilan bog'liqdir. P.Druker «Yunivem» kompaniyasi bilan bog'liq bir misolni keltiradi. Taxminan 1950 yillarda bozorni ilmiy tahlil qilish asosida 2000 yilga kelib kompyuterlar soni 1 mingga etadi, degan faraz qilingan. Lekin 1984 yilning o'zidayoq 1 milliondan ortiq kompyuter sotilgan edi. O'sha davrda o'tkazilgan tadqiqotlarda kompyuterlar faqat jiddiy ilmiy ish olib borish uchun qo'llaniladi, degan fikr ustuvor edi. Shu voqea «Kseroks» kompaniyasi bilan ham sodir bo'ldi. Chunki o'tkazilgan tadqiqotlarda poligrafiya korxonalarini nusxalash avtomatlariga Muhtoj emas, degan fikr asosiy o'rin egallagan edi. Lekin hech kim bu asboblar idora, maktab, universitet, kollejlarga ham kerak bo'ladi, deb o'ylamagan. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, yangi korxonalar tashkil etilganda uning mahsuloti yoki xizmati rejalashtirilmagan bozorlarda o'zining yangi iste'molchilarini topadi. Faqat an'anaviy qotib qolgan ishbilarmonlik dunyoharashni o'zgartirish kerak. xolos. Agar ma'lum maqsad uchun chiqarilayotgan mahsulotga yangi iste'molchilar tomonidan qiziqish bildirilsa, kompaniya shu qiziqishga jiddiy e'tibor berib, tahlil qilib chiqishi lozim¹⁸. Agarda bozordan uzilish yangi korxonalar uchun dastlabki vaqtda «kasallik» bo'lsa, moliyaviy omil, ya'ni noto'g'ri moliyaviy siyosat olib borish bunday korxonalar taraqqiyotining keyingi bosqichlarida jiddiy xavf tug'diradi. Muammo shundan iboratki, ishbilarmonlar yangi korxonalarini tashkil

¹⁷ I.Karimov. 2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarini safarbar etish, o'zmi oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi». Xalq so'zi gazetasi. 18.01.2014 y.

¹⁸ Турсунхужаев П.М. Корхоналарда ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва режалаштириш. – Тошкент, 1997. – С.35

etganda, birinchi navbatda, katta daromad olishga intiladi. Lekin, dastlabki vaqtda, asosiy e'tiborni ishlab chiqarish, rivojlanish, faoliyat, pul oqimini tartiblashtirish uchun moliyalashtirish manbaini topish lozim. Yangi korxonaga qo'shimcha kapital bilan ta'minlangandagina rivojlanishi mumkin, ya'ni ishbilarmonlik moliyani boshqaruvisiz bo'lmaydi. Korxonaning rivojlanishi va muvaffaqiyatida oliy boshqaruv tizimi yoki maxsus boshqaruv guruhi tuzish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu guruh ishni o'z korxonasining ishlab chiqarish xo'jalik faoliyatini tahlil qilishdan boshlashi lozim. Tahlillarga binoan, marketing sohasi asosan, korxonalarining bozorda ishlash uslubi, bozor metodologiyasi bo'lib, iste'molchilar va ularning talab istaklarini o'rganish, ularga mos tovarlar yaratish, narx belgilash, tovarlarni etkazib berish, taqdim etish, sotish, xizmat ko'rsatishni uyushtirish usullari, vositalari, tartib-qoidalari majmui hisoblanadi¹⁹.

Korxonalar rivojlanishining har bir bosqichiga korxonaga faoliyati samaradorligini oshirishga ta'sir etadigan ma'lum bir ishlab chiqarish strukturasi mos keladi. Sanoat rivojlanishining dastlabki bosqichida universal korxonalar tashkil qilingan bo'lib, ular murakkab ishlab chiqarish strukturasi ega bo'lgan, chunki unda tayyorlov, ishlov berish, yig'ish sexlarida cho'yan quyish, rangli metall quyish, temirchilik, presslash, mexanika, slesarlik-yig'ish va boshqa jarayonlar amalga oshirilgan. Bunday ishlab chiqarish strukturasi har qanday ishlab chiqarish doirasidagi buyurtmani bajarish imkonini bergan va korxonani yuqori raqobatbardoshligini ta'minlagan. Sanoat rivojlanishining bu bosqichida ishlab chiqarish strukturasi texnologik turi hukmron bo'lib, u o'z navbatida ayni texnika taraqqiyoti darajasida dastgohlarni bir xil guruhi bo'yicha joylashtirishga majbur etgan. Ishlab chiqarish strukturasi texnologik turini hukmron bo'lishiga sabab korxonada donaviy va seriyali ishlab chiqarishni tashkil qilinganligi bilan bog'liq bo'lgan. Ilmiy-texnik taraqqiyot turli xildagi ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan agregatlarni bitta tizimga (liniya) o'rnatish imkonini beruvchi individual uzatmalar yaratilishiga olib keldi. Buning natijasida buyumli ishlov beruvchi sexlarga ega bo'lgan zavodlar paydo bo'la boshladi. Biroq, ishlab chiqarish jarayonining tayyorlov bo'limi har qanday korxonani hattoki, kichik va o'rta korxonalarining ajralmas qismi bo'lib, tayyorlov sexlari texnologik jihatdan ixtisoslashganligicha qoldi.²⁰

Amaliyotda fan-texnika taraqqiyotining, jumladan, uning tarkibiy qismlarining ahamiyati va rolini inkor qiluvchi yoki tushunmovchi korxonani topish amrimahol. Biroq ushbu omilni amalga oshirish uchun faqatgina xohish va istaklarning o'zigina yetarli emas. Buning uchun birinchidan, fan-texnika

¹⁹ Косимов Ф.М. Ташкилот ва ташкилий бошқариш назарияси. – Тошкент: 2004. – С.67.

²⁰ Y.S. Shokirova, E.Yunusaliyev Korxonalarda ishlab chiqarishni tashkil qilish. – Farg'ona: 2009. – B.134.

taraqqiyotining ayni paytda zarur bo'lgan yo'nalishlarini izlash va aniqlash, ikkittichidan, pul mablag'larini va boshqa zarur bo'lgan resurslar (investitsiyalar) izlab topish, uchinchidan, zamonaviy ilmiy-texnikaviy ishlanmalarga ixtisoslashgan ilmiy tadqiqot institutlari, konstruktorlik, texnologik va boshqa ilmiy muassasalar bilan kerakli aloqalami «bog'lash», to'rtinchidan, o'z ilmiy-texnikaviy maqsadlarining samaraliligini hisoblab chiqish talab qilinadi. Ushbu xarajatlarning tarkibida ta'lim, sog'liqni saqlash, oilalarga ijtimoiy nafaqalar asosiy salmoqqa ega bo'lmoqda²¹.

Aholining turmush darajasi va daromadlarini izchil oshirib borish, ya'ni ish haqi, stipendiya, ijtimoiy nafaqa va pensiya miqdorini ko'paytirish yo'li bilan fuqarolarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi kuchaytirildi.

ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. B.Toshmurodova, O.Hamdorov. Moliyaviy menijment. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2012. – B.3
2. I.Karimov. 2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zmi oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. Xalq so'zi gazetasi. 18.01.2014 y.
3. Турсунхужаев П.М. Корхоналарда ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва режалаштириш. – Тошкент, 1997. – С.35
4. Косимов Ф.М. Ташкилот ва ташкилий бошқариш назарияси. – Тошкент: 2004. – С.67.
5. Y.S. Shokirova, E.Yunusaliyev. Korxonalarda ishlab chiqarishni tashkil qilish – Farg'ona: 2009. – B.134.
6. R.S.Muratov, I.A.Djalalova, S.Sh.Oripov. Korxonalar iqtisodiyoti. – T.: Fan va texnologiya, 2014. – B. 201.

²¹ R.S.Muratov, I.A.Djalalova, S.Sh.Oripov. Korxonalar iqtisodiyoti. Darslik. – T.: Fan va texnologiya, 2014. – B. 201.